

YETIM VA OTA-ONA VASIYLIGIDAN MAHRUM BO‘LGAN BOLALARNI HUQUQLARI VA MANFAATLARINI HIMOYA QILISH

Rashidov Mehriddin Faxriddin o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Magistratura va sirtqi ta’lim” fakulteti

Davlat boshqaruv huquqi yo‘nalishi magistranti

mehrippinrashidov4@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11441725>

***Annotatsiya.** Mazkur maqola bolalar huquq va erkinliklarini himoya qilishga bag‘ishlangan. Yetim va ota-ona vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarning kelib chiqishi, nasl-nasabi, dini, tili, millatidan qat’iy nazar uning huquq va erkinliklari kafolatlangaligi haqida yoritilgan. Mana shu nuqtai nazardan kelajak avlodning huquqiy savodxonligini oshirish yo‘lidagi islohotlar, chora-tadbirlar, tushuncha va maslahatlar berib o‘tilgan. Yosh avlodni erkin va demokratik, insonparvarlik ruhida tarbiyalash yo‘lida qator tavsiyalar berilgan.*

***Kalit so‘zlari:** bolaning qonuniy vakillari, vasiylik va homiylik, yetim bola, jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni mavjud bo‘lgan bola, ijtimoiy himoyaga muhtoj bola, nogironligi bo‘lgan bola*

PROTECTION OF THE RIGHTS AND INTERESTS OF ORPHANS AND CHILDREN DEPRIVED OF PARENTAL CARE

***Abstract.** This article is dedicated to the protection of children's rights and freedoms. It is explained that the child's rights and freedoms are guaranteed regardless of the child's origin, lineage, religion, language, and nationality. From this point of view, reforms, measures, concepts and advices for improving the legal literacy of the next generation have been given. A number of recommendations have been made to educate the young generation in a free, democratic, humanitarian spirit.*

***Key words:** the child's legal representatives, guardianship and sponsorship, an orphan, a child with disabilities in physical and mental development, a child in need of social protection, a child with a disability.*

ЗАЩИТА ПРАВ И ИНТЕРЕСОВ ДЕТЕЙ-СИРОТ И ДЕТЕЙ, ЛИШЕННЫХ РОДИТЕЛЬСКОЙ ПОМОЩИ

***Аннотация.** Данная статья посвящена защите прав и свобод детей. Разъясняется, что права и свободы детей-сирот и детей, лишенных родительской опеки, гарантируются независимо от их происхождения, происхождения, вероисповедания, языка и национальности. С этой точки зрения были даны реформы, меры, концепции и советы по*

повышению правовой грамотности будущего поколения. Был дан ряд рекомендаций по воспитанию молодого поколения в духе свободы, демократии и гуманности.

Ключевые слова: законные представители детей, опека и попечительство, дети-сироты, дети с физическими и психическими отклонениями, дети, нуждающиеся в социальной защите, дети-инвалиды.

Kirish

Har bir mamlakat qonunchiligi bilan bir qatorda, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilab qo‘yilgan bolalarning huquq va majburiyatlari, erkinlik va imkoniyatlari va eng asosiysi, bolalarning xavfsiz ekanligini, nafaqat yuridik kuchga ega bo‘lgan qonun urf-odat, keng imkoniyatlar yaratilayotganligi, shu jumladan, jamiyatimizda bolalarga ko‘rsatilayotgan alohida e‘tibor, bularning hammasi siyosatimizning qudrati hamda qonunchilik qay darajada amal qilayotganligining yorqin isbotidir.¹ Yosh avlodni erkin, demokratik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni komil inson qilib o‘stirish va ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish va ta‘minlab borish fuqarolik jamiyatiga asoslangan demokratik, huquqiy davlatni qurishni o‘z oldiga maqsad qilib olgan har bir jamiyat uchun juda ham muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Barcha demokratik davlatlar kabi, mazkur masala, ya‘ni yosh avlodni tarbiyalash, aholida esa bola huquqlari sohasidagi huquqiy madaniyatni shakllantirish masalasi, O‘zbekiston uchun ham muhim va dolzarb masala hisoblanadi. Mamlakatda yoshlar masalasi, ularning o‘z fuqarolik pozitsiyasiga ega inson sifatida tarbiyalash, ularning huquq va erkinliklarini, qonuniy manfaatlarini ta‘minlash masalalariga mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida katta e‘tibor qaratib kelinmoqda. Mustaqilligimiz dastlabki yillarida “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi maxsus qonuni qabul qilinganligi bunga yaqqol dalil bo‘la oladi. Mazkur Qonunda yoshlarga oid siyosatning maqsadi, O‘zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi vakolatlari, yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risidagi qonunlarning mazmun-mohiyati qanday bo‘lishi lozimligi, bu boradagi O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari normalarining ustuvorligi tamoyili ko‘rsatib o‘tilgan.

Bu esa, yoshlar siyosati masalasi 1992-yilgi mustaqil O‘zbekistonning Konstitutsiyasida o‘z aksini topishiga, shu yili O‘zbekistonning BMTning asosiy hujjatlaridan biri hisoblanmish

¹ 1АЛИМОВ М. Б. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФОНУНЧИЛИГИДА БОЛА ХУҚУҚЛАРИГА ОИД НОРМОЛАРНИНГ ХАЛҚАРО ХУҚУ СТАНДАРТЛАРИДА АКС ЭТИШИ //ВАРҚАРОРЛИК ВА YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. –2022. –С. 538-541.

“Bola huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiyaga qo‘shilishiga va mazkur hujjatlar asosida o‘tgan davr mobaynida bolalar va yoshlar masalalariga dahldor 100 dan ortiq qonunlarni qabul qilinishi hamda 2008-yilda, bu sohadagi maxsus qonun hisoblangan O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunini qabul qilinishiga asos bo‘ldi. 2008-yil 7-yanvar kuni kuchga kirgan O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni, 18 yoshgacha bo‘lgan subyektlar hisoblanmish, bolalarning huquqiy ahvolini belgilashga doir munosabatlarni tartibga solishga bola huquqlarini va erkinliklarini yuridik kafolatlashga qaratilgan

Asosiy qism

Bilamizki, O‘zbekiston qonunchiligiga muvofiq bola o‘z huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish huquqiga ega hisoblanib, bolaning huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uning ota-onasiyoki uni o‘rnini bosuvchi shaxs qonuniy vasiy yoki homiyi tomonidan amalga oshiriladi va shu o‘rinda voyaga yetmagan bola qonunga muvofiq to‘la muomala layoqatiga ega deb e’tirof etilsa, u o‘z huquq va majburiyatlarini, jumladan, himoya huquqini mustaqil oshirishga haqlidir.² Yuqoridagi jumlada bolaning vakili deganda, ya’ni bolaning qonuniy vakillari—ota-onalar, farzandlikka oluvchilar, vasiylar, homiyar hisoblanadi. Vasiylik va homiylik—ota-onaqaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni ularga ta’minot, tarbiya hamda ta’lim berish shuningdek ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shakli. Vasiylik o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan, homiylik esa o‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan bolalarga nisbatan belgilanadi.³ Shu o‘rinda aytish mumkinki, bola huquqlarini himoya qilish deganda, so‘z, bevosita oilaga taqalayotganligi, bevosita har bir shaxslarning huquqi mavjudligidan dalolatdir. Oila tushunchasiga gap borar ekan, oilabu, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyamizning 76-moddasida belgilab qo‘yilganidek, “Jamiyatning asosiy bo‘g‘ini” hisoblanib, O‘zbekiston milliy qadriyatlarida ham qonunchiligida ham mustahkam va muqaddas sanaladi.

Yetim bola—otasi ham, onasi ham vafot etgan yoki ular sud qaroriga binoan vafot etgan deb e’lon qilingan bola, jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bola—nogironlikni belgilash uchun yetarli bo‘lmagan jismoniy, aqliy, sezgi va ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bola, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar—yuzaga kelgan holatlar sababli og‘ir turmush sharoitida qolgan, davlat va jamiyat tomonidan alohida himoya qilishga hamda qo‘llab-quvvatlashga muhtoj bolalarga nisbatan qo‘llaniladi. Shular qatorida, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar,

² Икрамов Ш., Атаниязов Ж. Болалар хукуқларини ҳимоя қилишда хорижий давлатлар тажрибаси // Общество и инновации. –2022. –Т. 3. –No. 6/S. –С. 218-225.

³ Ibratova F., Ahadova M., Rozmetova A. APPLIED JURISPRUDENCE //Editorial team. –2021. –No. 2021. –С. 45v

ixtisoslashtirilgan bolalar muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalar, muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan bolalar, zo'ravonlik va ekspluatatsiya, qurolli mojarolar va tabiiy ofatlar natijasida jabrlangan bolalar toifalaridam mavjud bo'lib, ushbu bolalar hamda yuqorida sanab o'tilgan bolalarning huquqlari teng va adolatli tarzda belgilab qo'yilgan.⁴ O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi nuqtaiy nazaridan, albatta, hamma bolalarning huquqlari O'zbekiston Respublikasi Kosntitutsiya va qonunlari oldida teng hisoblanadi.⁵ Ammo qonunchilikda mustasno holati ham mavjud. Mustasno jihatiga, yetim bolalar, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar, ixtisoslashtirilgan bolalar muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalar, muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan bolalar, zo'ravonlik va ekspluatatsiya, qurolli mojarolar va tabiiy ofatlar natijasida jabrlangan bolalar davlat tomonidan ma'lum belgilanga imtiyozlar asosida o'z huquq va manfaatlarini himoya qiladi.⁶

2016 yil o'rtalaridan boshlab O'zbekistonda bolalarni, xususan yetim bolalarni eng zaif toifa sifatida ijtimoiy himoya qilish tizimini isloh qilish bo'yicha tizimli faol ishlar boshlandi.

Bugungi kunda O'zbekiston qonunchiligi yetim bolalarga ijtimoiy himoya sohasida bir qator afzalliklarni va davlat tomonidan ijtimoiy yordamni kafolatlaydi. Birinchidan, bunday qonun hujjatlaridan birisifatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yildagi 25 oktabrdagi 656 "Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorini qayd etilishi kerak.

Bu ijtimoiy kafolatlar tushunchasining qonunchilik ta'rifi "Ijtimoiy ta'minot to'g'risida"gi qonunida keltirilgan (davlat ijtimoiy kafolatlar eng kam ish haqining tomonidan belgilanadi, fuqarolarning daromadi, pensiya, ijtimoiy yordam, ijtimoiy to'lovlar va mavjudligi darajasidan kam bo'lmagan turmush darajasini ta'minlash, boshqa normativ-huquqiy harakatlar boshqa turdagi miqdori). Qonun chiqaruvchi ijtimoiy himoyaning faqat ayrim asosiy kafolatlarini ko'rsatganligini hisobga olib, Ye. Machulva J. Gorbachev kabi olimlar tomonidan kafolatlarning yanada kengaytirilgan ro'yxati taklif etilgan⁷. Shunday qilib, yetim bolalarni ijtimoiy himoya qilish huquqini amalga oshirish kafolatlari quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak: uy-joy, mehnat, ijtimoiy tarmoqlarda ta'lim va qo'llab-quvvatlash huquqlari sohasidagi kafolatlar (ya'ni: ularni uy-joy bilan ta'minlash, ishga joylashish uchun joylarni bron qilish, tanlovdan tashqari oliy o'quv

⁴ Boboqulovna I. F., Orif o'g'li R. B. MEDIATSIYA–OILAVIY NIZOLARNI HAL ETISHNING MUQOBIL USULI SIFATIDA //SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH. –2022. –T. 1. –No. 4. –С. 80-85.

⁵ Дусмухамедова Н. Н. ЎЗБЕКИСТОНДА БОЛА ҲУҚУҚЛАРИГА ОИД ДАВЛАТ СИЁСАТИНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ //ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ. –2020. –Т. 5. –No. 7.

⁶ Ibratova F. B. et al. Special features of modern legal systems: cases and collisions. –201

⁷ Мачульская Е.Е., Горбачева Ж.А. Право социального обеспечения. –М.: Книжный мир. –2001. –С. 3-4

yurtlariga o'qish huquqi, to'liq davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, va ho kazo.). Ta'kidlash joizki, hozirgi rivojlanish sharoitida yetim bolalar uchun ushbu kafolatlar hardoin ham to'liq amalga oshirilmaydi, bu ushbu toifadagi bolalarni ijtimoiy himoya qilishni huquqiy tartibga solish sohasida ko'plab muammoli masalalarning mavjudligi bilan bog'liq.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, mazkur tadqiqotning maqsadi yetimlarni ijtimoiy himoya sohasida amalga oshirishning asosiy kafolatlarini o'rganish, ushbu huquqni amalga oshirish bilan bog'liq ba'zi muammolarni aniqlash va ularni hal qilish yo'llarini topishdir.

Tadqiqotning maqsadi quyidagi vazifalarda ko'rsatilgan: yetim bolalarni ijtimoiy himoya qilish sohasidagi kafolatlarni amalga oshirishning ba'zi muammolarini aniqlash va o'rganish jarayonida bilishning dialektik mantig'idan foydalanish va o'zlarining ilmiy xulosalari asosida shakllantirish. Binobarin, yetim bolalarning uy-joy huquqi sohasida ijtimoiy himoya qilish huquqini amalga oshirish kafolatlariga mulk huquqi yoki uy-joydan foydalanish va yangi uy-joy bilan ta'minlash huquqi bilan ularga tegishli bo'lgan yetim bolalarni saqlash kiradi. Shu bilan birga, yetim bolalarning ota-onalari, qarindoshlari va boshqalar bilan birga yashagan uyga bo'lgan huquqini saqlab qolish majburiyati. Qarindoshlari, o'gay onasi, o'gay otasi, vasiylik vahomiylik organiga topshirilgan bola o'zi yashagan uyda yashash huquqini saqlab qoladi va istalgan vaqtda unga qaytishi mumkin. Yetim bolalar o'zlarining tegishli kelishuvlaridan oldin yashagan turar-joy binolari vasiylik va vasiylikdan bunday begonalashtirishga roziligisiz begonalashtirilishi mumkin emas, bu faqat bunday bolalarning uy-joy huquqi saqlanib qolishi kafolatlangan taqdirdagina ta'minlanishi mumkin. Agar bolalar yoki yetim bolalar, tegishli muassasalarga yoki oilaga joylashtirilishidan oldin, ular tartibli uy-joyga ega bo'lmagan yoki ularning orqasida saqlanadigan binolarning uyiga joylashtirilmagan bo'lsa, ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tartibli uy-joy bilan ta'minlash huquqiga ega emaslar. Davlat bolalar muassasasidan qarindoshlari, vasiylari yoki vasiylaridan qaytib kelgan shaxslar, agar ilgari egallab olingan turar-joy binolarini qaytarib berishning iloji bo'lmasa, tashqarida yashash xonasi taqdim etiladi. Ular favqulodda uy-joy olish huquqiga ega bo'lgan fuqarolar sifatida alohida ro'yxatga kiritilgan.

Ayni vaqtda, O'zbekistonda ota ona qaramog'siz qolgan bolalarni kasbiy faoliyatga o'rgatish uchun qulay yashash, ovqatlanish va ta'lim olish sharoitlarini yaratish yo'lida samarali ishlar olib borilmoqda. Ana shunday tadbirlardan biri tarbiyalanuvchilarni oila muhitini o'zida mujassam etuvchi onalarga berish loyihasi amalga oshirildi. "Sog'lom avlod uchun" xalqaro nodavlat tashkilot, O'zbekiston Xotin-qizlar Qo'mitasi va Toshkent shahar hokimiyati tashabbusi bilan 2000 yilda Avstriyaning 132 mamlakatda faoliyat olib borayotgan "SOS – Kinderdorf International" loyihasi bo'yicha "SOS – bolalar mahallalari"ni yaratishga alohida e'tibor

qaratilmoqda. Loyihaga ko‘ra Toshkent shahrida barpo etilgan “SOS – bolalar mahallasi”da 14 ta oilada mehribonlik uylarining sobiq tarbiyalanuvchilari voyaga yetishmoqda.⁸

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, mamlakatda bugungi kunda aholining bola huquqlari oid huquqiy madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha huquqiy asos va institutsional tizim yaratildi va u takomillashtirib borilmoqda. Ammo, qonunlarni ishlashi, ular Mexanizmlarining samaradorligi birinchi o‘rinda, aholining huquqiy madaniyatining qay darajada ekanligiga bog‘liqdir. Uni esa, bu borada ta‘limsiz erishib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham, mamlakatda inson huquqlari sohasidagi ta‘limni rivojlantirish bilan bir qatorda, uning aholisining katta qismini tashkil etuvchi bolalarning huquqlarini ham maxsus o‘qitish bugungi kunning dolzarb masalasiga aylanmoqda.

Mazkur yo‘nalishda, bolalarning huquqiy madaniyatini yanada yuksaltirishda, aholining bola huquqlariga oid huquqiy bilimlarini oshirish maqsadida qator islohatlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida shaxs va fuqaroning o‘z huquq va majburiyatlarini amalga oshirishiga asos bo‘lgan omil, ya‘ni rahbariy g‘oyalar yig‘indisi hisoblangan shaxs va fuqaro huquqiy maqomining quyidagi tamoyillari mustahkamlab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Bolalar masalalari bo‘yicha Jamoatchilik Kengashini tuzish lozim. O‘zbekiston Respublikasida bolalar huquqlarini himoya qilish va ularning manfaatlarini kafolatlash maqsadida Prezident huzurida Bolalar masalalari bo‘yicha jamoat kengashini tuzish g‘oyasi quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin:

Jamoat Kengashining asosiy vazifalari:

1. Bolalar huquqlarining himoyasi ya‘ni bolalar huquqlari buzilgan holatlarni aniqlash, ularning oldini olish va hal etish.
2. bolalarga oid davlat siyosati amalga oshirishga doir dasturlar ishlab chiqish, bolalar huquqlari va manfaatlarini asosiy o‘ringa qo‘yadigan davlat siyosatini shakllantirishda davlat rahbariga maslahatlar berish.
3. Bolalar oid masalalarni doimiy monitor qilish, bolalar huquqlariga oid qonunchilikning amal qilishini, bolalar manfaatlarini inobatga oluvchi turli dasturlarning samaradorligini kuzatib borish.
4. Yetim bolalarni ijtimoiy himoyalash tizimini mustahkamlash, yetim bolalar, nogiron bolalar va ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar uchun ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqish va takomillashtirish.

⁸ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев Сийosat.Ўзбекистон янгиликлари. Расмий сайт. www.gazeta.uz/uz2021 йил 28 июль

5. jamoat fikrini o'rganish, bolalar masalalari yuzasidan jamoat fikrini tahlil etish va ular asosida mazkur sohada statistikalarni yuritish.

REFERENCES

1. Алимов М. Б. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ҚОНУНЧИЛИГИДА БОЛА ҲУҚУҚЛАРИГА ОИД НОРМОЛАРНИНГ ХАЛҚАРО ҲУҚУ СТАНДАРТЛАРИДА АКС ЭТИШИ //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. –2022. –С. 538-541.
2. Икрамов Ш., Атаниязов Ж. Болалар ҳуқуқларини ҳимоя қилишда хорижий давлатлар тажрибаси //Общество и инновации. –2022. –Т. 3. –No. 6/S. –С. 218-225.
3. Ibratova F., Ahadova M., Rozmetova A. APPLIED JURISPRUDENCE //Editorial team. – 2021. –No. 2021. –С. 45v
4. Boboqulovna I. F., Orif o'g'li R. B. MEDIATSIYA–OILAVIY NIZOLARNI HAL ETISHNING MUQOBIL USULI SIFATIDA //SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH. –2022. –Т. 1. –No. 4. –С. 80-85.
5. Дусмухамедова Н. Н. ЎЗБЕКИСТОНДА БОЛА ҲУҚУҚЛАРИГА ОИД ДАВЛАТ СИЁСАТИНИНГ ҲУҚУҚИЙАСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ //ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ. –2020. –Т. 5. –No. 7.
6. Ibratova F. V. et al. Special features of modern legal systems: cases and collisions. –201
7. Мачульская Е.Е, Горбачева Ж.А. Право социального обеспечения. –М.: Книжный мир. –2001. –С. 34
8. ¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев Сиёсат.Ўзбекистон янгиликлари. Расмий сайт. www.gazeta.uz/uz2021 йил 28 июль